



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHINING Q A R O R I

2023 yil 10 mart

№ 1777

Ayrim sudyalarning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonunning 79-moddasi va “O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi to‘g‘risida”gi Qonunning 7, 17-moddalariga muvofiq

Abdusattarov Sardorbek Saibdjanovich – Sudyalar odobi kodeksi talablarini buzganligi uchun Namangan viloyati jinoyat ishlari bo‘yicha Uchqo‘rg‘on tuman sudining raisi lavozimidan ozod etilib, sudyalik vakolatlari muddatidan ilgari tugatilsin;

Ulmasov Axadjon Axmedovich – odil sudlovni amalga oshirish chog‘ida qonununiylikni buzganligi hamda ishni tashkil etishdagi beparvoligi va intizomsizligi uchun Farg‘ona viloyati jinoyat ishlari bo‘yicha Oltiariq tuman sudining sudyasi lavozimidan ozod etilib, sudyalik vakolatlari muddatidan ilgari tugatilsin;

Ikramov Baxriddin Qilichovich – sudyalik qasamyodini buzganligi uchun Toshkent shahar jinoyat ishlari bo‘yicha Yashnobod tuman sudining sudyasi lavozimidan ozod etilib, sudyalik vakolatlari muddatidan ilgari tugatilsin.

Ushbu Qaror qabul qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi



X.Yodgorov